

BOSHLANG'ICH BOSQICHDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Maftuna Toshtanova Xamidjon qizi

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

[*maftunatoshtanova@gmail.com*](mailto:maftunatoshtanova@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich (A1) darajadagi o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. O'qish kompetensiyasi chet tilini egallash jarayonida asosiy kommunikativ faoliyat turi sifatida ko'rib chiqilib, uning lingvistik, psixologik va didaktik omillari ochib beriladi. Maqolada A1 darajadagi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, matn tanlash mezonlari, o'qish strategiyalari hamda interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bosqichma-bosqich, strategiyaga asoslangan va kommunikativ yo'naltirilgan o'qish faoliyati o'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, A1 daraja, boshlang'ich bosqich, o'qish strategiyalari, kommunikativ yondashuv, funksional savodxonlik.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing reading comprehension skills at the elementary (A1) level. Reading competence is considered as a key communicative skill in foreign language acquisition. The linguistic, psychological, and didactic aspects of teaching reading are discussed. Special attention is given to age characteristics, text selection criteria, reading strategies, and interactive techniques. The findings indicate that strategy-based and communicative reading instruction significantly enhances functional literacy at the elementary level.

Keywords: reading comprehension, A1 level, elementary learners, reading

strategies, communicative approach, functional literacy.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и методические основы формирования навыков чтения на элементарном (А1) уровне. Чтение рассматривается как важнейший вид коммуникативной деятельности в процессе обучения иностранному языку. Освещаются лингвистические, психологические и дидактические аспекты обучения чтению. Особое внимание уделяется возрастным особенностям учащихся, критериям отбора текстов, стратегиям чтения и интерактивным методам. Результаты исследования показывают, что стратегически ориентированное и коммуникативное обучение способствует развитию функциональной грамотности.

Ключевые слова: чтение, уровень А1, начальный этап, стратегии чтения, коммуникативный подход, функциональная грамотность.

Kirish. Chet tilini o'qitish jarayonida o'qib tushunish ko'nikmasi kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yevropa til o'rganish bo'yicha umumiy tavsiyalarida (CEFR) A1 darajadagi o'quvchi sodda matnlarni o'qib, asosiy ma'lumotni tushuna olishi belgilangan [1, p. 26]. Bu bosqichda o'qish jarayoni asosan tanish leksik birliklar va sodda grammatik konstruksiyalar asosida amalga oshiriladi. O'qish – bu matn mazmunini dekodlash va talqin qilish jarayonidir. U faqat tovush chiqarib o'qish emas, balki ma'noni anglash, kontekstni tushunish va axborotni qayta ishlashni ham o'z ichiga oladi [2, p. 185].

Metodik adabiyotlarda o'qish jarayoni odatda ikki asosiy kognitiv model – **bottom-up** va **top-down** yondashuvlari orqali izohlanadi. Grabe va Stoller ta'kidlaganidek, bottom-up modelda o'quvchi matnni eng kichik birliklardan boshlab dekodlaydi: harf tovushga, tovush bo'g'inga, bo'g'in so'zga, so'z esa gap va matn mazmuniga ulanadi [3, p. 16]. Ushbu model ayniqsa A1 darajada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki boshlang'ich bosqich o'quvchisi hali tilning grafik va

<https://scientific-jl.com/>

fonetik tizimini mustahkam o'zlashtirish jarayonida bo'ladi. Shuning uchun o'qish faoliyati dastlab mexanik dekodlashdan ma'noli idrokka o'tish bosqichini bosib o'tadi. Bu jarayonda fonema-grafema mosligini anglash, tanish leksik birliklarni tezda ajrata olish va sodda sintaktik tuzilmalarning mantiqiy bog'lanishini tushunish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Top-down model esa o'qishni faqat belgilarni tanish emas, balki o'quvchining oldingi bilimlari, tajribasi va kontekst asosida mazmunni oldindan taxmin qilishi bilan bog'laydi. Bu yondashuvda matnni tushunish jarayoni umumiy mazmundan detallar sari yo'naladi. O'quvchi sarlavha, rasm yoki mavzu asosida matn mazmuni haqida gipoteza ilgari suradi va o'qish davomida uni tasdiqlaydi yoki inkor etadi. A1 darajada bu jarayon to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, oddiy savollar, vizual materiallar va tanish vaziyatlar orqali mazkur mexanizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Harmining fikriga ko'ra, boshlang'ich bosqichda o'qish jarayonini samarali tashkil etish uchun ko'rgazmalilik va qisqa, strukturalangan matnlar muhim rol o'ynaydi [4, p. 99]. Chunki yosh va boshlang'ich darajadagi o'quvchilarda diqqatning barqarorligi cheklangan bo'ladi. Shu sababli matn hajmi kichik, leksikasi sodda va grammatik tuzilmalari takroriy xarakterga ega bo'lishi lozim. Takroriy mashqlar esa o'quvchining avtomatizatsiya jarayonini tezlashtiradi hamda o'qish tezligi va aniqligini oshiradi.

O'qish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida strategik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Strategiya tushunchasi o'quvchining matn bilan ishlashda ongli ravishda qo'llaydigan usullarini anglatadi. Masalan, asosiy mazmunni tez aniqlashga qaratilgan skimming jarayoni A1 bosqichida sarlavha va rasmlar asosida umumiy mavzuni tushunish shaklida namoyon bo'ladi. Aniq ma'lumotni topishga qaratilgan scanning esa matndan ism, sana yoki son kabi konkret birliklarni izlab topish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'quvchini matnni har bir so'zini o'qishga majbur qilmaydi, balki selektiv o'qish malakasini shakllantiradi.

Shuningdek, oldindan taxmin qilish mexanizmi o'qishdan oldingi bosqichda savollar berish yoki rasm asosida suhbat tashkil etish orqali rivojlantiriladi. Bu o'quvchining faol fikrlashini rag'batlantiradi va matnni tushunishni yengillashtiradi. Kontekstdan ma'no chiqarish esa yangi leksik birlikni bevosita tarjima qilmasdan, gap mazmuni orqali anglashga yordam beradi. Boshlang'ich darajada bu ko'nikma ko'pincha sinonim, antonim yoki vizual yordam orqali qo'llab-quvvatlanadi. Umuman olganda, A1 darajadagi o'qish jarayoni dastlab dekodlashga tayansa-da, asta-sekin strategik va mazmuniy idrokka o'tadi. Bottom-up va top-down mexanizmlarining uyg'unligi o'quvchida nafaqat matnni o'qish, balki uni tushunish va undan amaliy foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bois nazariy jihatdan o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni mexanik o'qishdan kommunikativ o'qishga evolyutsion o'tish sifatida talqin etiladi.

Boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun matn tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratiladi: leksik minimalizm, qisqa va sodda gaplar, vizual qo'llab-quvvatlash, tanish mavzular.

Brown fikriga ko'ra, kommunikativ yondashuv o'qish faoliyatini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashni talab qiladi [5, p. 218]. Shu sababli A1 bosqichida dialoglar, e'lonlar, oddiy xabarlar kabi funksional matnlar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Interaktiv metodlar (Think-Pair-Share, matching tasks, gap filling) o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va motivatsiyani oshiradi.

A1 darajada o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish tizimli, bosqichma-bosqich va strategiyaga asoslangan yondashuvni talab qiladi. O'qish jarayonida lingvistik soddalik, vizual yordam, kommunikativ vazifalar va interaktiv metodlarning uyg'unligi o'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantiradi. O'qish kompetensiyasi keyingi bosqichlarda til o'rganish samaradorligining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge University Press.
2. Nuttall, C. (1996). *Teaching reading skills in a foreign language*. Heinemann.
3. Grabe, W., & Stoller, F. (2011). *Teaching and researching reading* (2nd ed.). Routledge.
4. Harmer, J. (2007). *How to teach English*. Longman.
5. Brown, H. D. (2007). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (3rd ed.). Pearson Longman.